

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc 03/30.12.2019.Ped.34.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

BIJANOV ALIBI KDIRBAYEVICH

**TEXNIKAVIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA SIMULYATSION
YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING KASBIY
KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH
(“Elektr ta'minoti asoslari” fani misolida)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2023

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Bijanov Alibi Kdirbayevich

Texnikaviy oliy ta’lim muassasalarida simulyatsion yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish (“Elektr ta’minoti asoslari” fani misolida)..... 3

Бижанов Алиби Кдырбаевич

Совершенствование профессиональной компетентности студентов в технических высших образовательных учреждениях на основе симуляционного подхода (на примере предмета «Основы электроснабжения»)..... 23

Bijanov Alibi Kdirbayevich

Improving the professional competence of students in technical higher education institutions based on a simulation approach (on the example of the subject “Fundamentals of power supply”)..... 45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 49

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc 03/30.12.2019.Ped.34.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

BIJANOV ALIBI KDIRBAYEVICH

**TEXNIKAVIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA SIMULYATSION
YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING KASBIY
KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH
(“Elektr ta'minoti asoslari” fani misolida)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PHD/Ped4091 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.ndpi.uz) hamda "ZiyoNet" ta'lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Raxmonov Ikromjon Usmonovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponenlar:

Karlibayeva Guljaxan Yermekbayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Oteniyazov Rashid Idrisovich
texnika fanlari doktor, dotsent


Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.ped.34.01 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil « 15 » IX soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi raqamsiz uy.) Tel.: (99861) 229-40-75; faks: (99861) 229-40-75; e-mail: nkspi_info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Nukus davlat pedagogika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (61 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi raqamsiz uy. Tel.: (99861) 229-40-75; faks: (99861) 229-40-75;

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil « 30 » VIII da tarqatildi.
(2023 yil « 30 » VIII dagi 61 - raqamli reestr bayonnomasi).


B.P. Otemuratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., dotsent
Z.K. Kurbaniyazova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d., dotsent
A.B. Kamalov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonning oliy ta'lim muassasalarida simulyatsion yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonini takomillashtirishning kreativ ta'lim texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha yangi ta'lim kontseptsiyasida "Ta'lim – taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim faoliyat" sifatida e'tirof etilgan¹. Mazkur jarayonlar bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida, xususan, texnikaviy oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etishda, mutaxassislik fanlarini o'qitishda ularning xususiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan birga raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda axborot-texnik ta'minotni takomillashtirish asosida nazariy va amaliy bilimlar integratsiyasini ta'minlashning dolzarbligini namoyon etmoqda.

Dunyoda texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalar amaliyotida talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonida simulyatsion o'qitish (Simulation-based learning), debriefing asosida stresslarni boshqarish (Critical Incident Stress Debriefing), yangi virtual avlod (Virtual reality) va kengaytirilgan reallik (Augmented reality) kabi ilg'or dasturiy va texnik vositalardan keng foydalanish, ularni amaliyotiga joriy etishning samaradorligini va natijadorligini asoslashga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Respublikamizda iqtisodiyot tarmoqlari kesimida energiya sig'imdorligini 2030 yilga qadar bir yarim barobarga kamaytirish maqsadida yangi texnologik yechimlarni yaratish va takomillashtirish hamda joriy etishga doir keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20% ga oshirish" bo'yicha vazifalari belgilangan. Ushbu strategiyadagi vazifalarni amalga oshirishda, aynan, oliy ta'lim muassasalarida, zamonaviy universitetlar tajribasi asosida ta'limning sifatini oshirish, o'quv-texnik va laboratoriya jihozlari bilan ta'minlash, o'quv dasturlari va elektron ta'lim resurslarini jahon standartlari asosida yangilash, o'quv jarayonini avtomatlashtirish kabi ishlarga alohida e'tibor qaratildi. Ta'lim sohasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohatlar natijasida, jumladan, texnikaviy oliy ta'lim muassasalarida "Elektr ta'minoti asoslari" fanini zamon talablariga mos jihozlar va ilg'or usullar asosida o'qitish imkoniyatlari yaratildi. Shular bilan bir qatorda, "Elektr ta'minoti asoslari" fanini ishlab chiqarish bilan o'zaro aloqasini ta'minlash va uni yanada chuqurroq o'rganishni jadallashtirish zarurati ko'zga tashlanmoqda. Bu borada aniq belgilangan chora-tadbirlar va vazifalar asosida ta'lim sifat ko'rsatkichining tub negizidan oshirilishi

¹ Incheon declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

muhim va ahamiyatlidir. Shuningdek, muhandislik sohasiga talab ortib borayotgan bugungi davrda mazkur sohaning mutaxassislik fanlarini o'qitishda yangi yondashuvlarni yaratish, talabalarning soha sirlarini mukammal o'rganishida fanlarning amaliy ahamiyatini oshirish o'z navbatida ularning kasbiy kompetentligini shakllantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2012-yil 21-martdagi PQ-1730-son "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda o'qitish jarayonini takomillashtirish bilan bog'liq ilmiy, metodologik va didaktik jihatlar, shu jumladan talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari H.O.Jo'raev, G.E.Karlibaeva, M.T.Mirsolieva, N.A.Muslimov, N.T.Orinbetov, M.A.Oripov, R.B.Tursunov singari olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan va simulyatsion yondashuv asosida o'qitishning ilmiy, nazariy va metodik asoslari A.A.Abduqodirov, B.S.Abdullaeva, M.X.Allamberganova, A.R.Aripdjanova, U.SH.Begimqulov, S.M.Jumaboev, F.M.Zakirova, N.A.Kayumova, M.X.Lutfillaev, B.B.Muminov, B.M.Suropov, N.I.Taylakov, O.X.To'raqulov, M.R.Fayzieva, K.M.Xalikov, V.S.Xamidov kabi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan L.P.Alekseeva, E.F.Zeer, I.A.Zimnyaya, A.K.Markova, O.F.Piralova, Yu.G.Tatur, A.V.Xutorskiylar tomonidan kasbiy kompetentlik muammolari o'rganilgan bo'lsa, V.P.Bespalko, V.I.Blinov, N.V.Bordovskaya, V.G.Budanov, Yu.V.Vaynshteyn, N.I.Gelashvili, B.S.Gershunskiy, S.M.Komarova, A.M.Novikov, A.M.Sanko, A.A.Strokovlarning ilmiy ishlarida ta'lim tizimida kasbiy kompetentlikni shakllantirishda simulyatsion yondashuv asosida o'qitish tahlil etilgan.

Xorijlik olimlardan Terrence Hoffman, D.Hooshyar ilmiy ishlarida ta'lim tizimidagi kompetentlik, shu jumladan, talabalarning kasbiy kompetentligini

takomillashtirish, Alejandra J. Magana, Angela B. Shiflet va George W. Shiflet, N.Rutten, A.Maria, Madhu Asundilar ilmiy ishlarida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda asosan simulyatsion yondashuv asosida o'qitishning imkoniyatlari tadqiq etilgan.

Biroq yuqorida keltirilgan bir qator muvaffaqiyatlarga qaramasdan, texnikaviy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim yo'nalishlari hususiyatidan kelib chiqib, talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishda zamonaviy simulyatsion va dasturiy ta'minot vositalaridan foydalanish, inson hayoti va faoliyatiga xavf soluvchi jarayonlarni simulyatsion modellashtirish asosida talabalarning mazkur jarayonlar bilan bog'liq ko'nikmalarni oshirish, o'quv jarayonini shakl va mazmun jihatdan boyitish, axborot ta'lim resurslarini va qulay interfeysga ega bo'lgan veb sahifalarni yaratish va ularni o'quv jarayonida qo'llash orqali talabalarning mutaxassislikga oid kompetentliklarini takomillashtirish bilan bog'liq ilmiy muammolar yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpoq davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Energetika sistemalarining optimal holatlari, o'tish jarayonlari va sifatini hisoblash, tahlil qilish va ularni avtomatlashtirilgan boshqarishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish" hamda Toshkent davlat texnika universitetining IOT-2021-23-"Sanoat korxonalarining energiya iste'moli monitoringi uchun avtomatlashtirilgan dasturiy mahsulot yaratish" mavzulari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi texnikaviy oliy ta'lim muassasalarida simulyatsion yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

texnikaviy oliy ta'lim muassasalarida "Elektr ta'minoti asoslari" fanini nazariya bilan amaliyotni uyg'unlashtirgan holda simulyatsion yondashuv asosida o'qitishning pedagogik va texnik imkoniyatlarini tahlil qilish;

talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish modelini ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali simulyatsion yondashuv asosida takomillashtirish;

texnikaviy oliy ta'lim muassasalarida "Elektr ta'minoti asoslari" fani mazmunini raqamlashtirilgan ta'lim muhiti asosida tarkiblashtirish va simulyatsion dasturiy ta'minotlardan foydalanishga qo'yiladigan didaktik talablarini aniqlashtirish;

"Elektr ta'minoti asoslari" fanini o'qitishni simulyatsion yondashuv asosida takomillashtirishga qaratilgan simulyatsion dasturiy ta'minot ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Tadqiqotning obyekti texnikaviy oliy ta'lim muassasalarida simulyatsion yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish jarayoni bo'lib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent davlat texnika universiteti, Farg'ona politexnika instituti va Qoraqalpoq davlat universitetining jami 240 nafar talabalari jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini texnikaviy oliy ta'lim muassasalarida simulyatsion yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetentligini "Elektr ta'minoti asoslari" fani misolida takomillashtirish mazmuni, shakllari, vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (tahliliy-statistik, qiyosiy-taqqoslash), diagnostik (suhbat, so'rovnoma, kuzatish, tasniflash), pedagogik tajriba-sinov (ma'lumotlarni matematik-statistik tahlil qilish, natijalarni diagramma, grafik, jadval va rasmlarda tasvirlash) kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish imkoniyatlari texnikaviy oliy ta'lim muassasalarida "Elektr ta'minoti asoslari" fanining nazariyasi va amaliyotini texnik jarayonlar bilan o'zaro integratsiyalash orqali o'qitish samaradorligini oshirish tamoyillariga (tajriba, sifat, teskari aloqa, individual muloqat) ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish mazmuni "Talaba = ta'lim + simulyatsion muhit + ishlab chiqarish"ning uzviyligini ta'miynlashga yo'naltirilgan amaliy mashg'ulotlarda nostandart va murakkab texnologik vaziyatlarni yaratish asosida muhandislik jarayonlarni immersiv sezishga doir simulyativ ta'limning an'anaviy ta'lim bilan identivligini ta'miynlash orqali takomillashtirilgan;

texnikaviy oliy ta'lim muassasalarida talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik modeli tarkiviy, tashkiliy va tashxis komponentlarining yaxlitligini ta'miynlashga yo'naltirilgan "Elektr ta'minoti asoslari" fanining o'quv materillarini simulyatsion taqdim etishga doir amaliy va virtual simulyatsion laboratoriya mashg'ulotlari hamda mustaqil ishlarni uyg'unlashtirish orqali takomillashtirilgan;

muhandislik bilimlarning fundamentalligi tamoyiliga ustuvorlik berish asosida "Elektr ta'minoti asoslari" fanini o'qitish metodikasi virtual simulyatsion laboratoriya ishlab chiqish, uni veb tizim ko'rinishida faollashtirish, o'quv kontentlarini takibiy boyitish va o'qitishning integrativ tizimlarini texnik ta'lim jarayonlariga qo'llashning dasturiy algoritmini yaratish orqali mobil gadjet va kompyuterlarga moslashtirilgan holda takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

dasturiy elektron paketlarni foydalangan holda "Elektr ta'minoti asoslari" faniga oid laboratoriya ishlaridagi jarayon va hodisalarni to'liq ko'rsatib bera oladigan, simulyator yordamida o'qitishni tashkillashtirish asosida dasturiy ta'minot yaratilgan;

"O'quv simulyatori yordamida "Elektr ta'minoti asoslari" fanidan talabalar bilimini baholash va o'zlashtirish ko'rsatkichini hisoblash dasturi" yaratilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2022-yil 16-iyulda ro'yxatdan o'tkazilgan DGU 17645 - raqamli guvohnomasi);

"Elektr ta'minoti asoslari" fanini o'quv simulyatori yordamida o'qitishda tajribaviy natijalarni hisoblash dasturi yaratilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya

vazirligining 2022-yil 16-iyulda ro'yxatdan o'tkazilgan DGU 17646 - raqamli guvohnomasi);

““Elektr ta'minoti asoslari” fani bo'yicha virtual laboratoriya ma'lumotlar bazasi” yaratilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2022-yil 16-dekabrda ro'yxatdan o'tkazilgan BGU 00858 - raqamli guvohnomasi);

“Sanoat korxonalarining elektr yuklamalarini tadqiq qilish virtual laboratoriyasi ma'lumotlar bazasi” (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2022-yil 16-dekabrda ro'yxatdan o'tkazilgan BGU 00859 - raqamli guvohnomasi) yaratilgan va o'quv jarayoniga tatbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv va usullar ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi darajasi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati texnikaviy oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda simulyatsion dasturiy ta'minotning o'rni, ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari ochib berilganligi hamda ilmiy-nazariy, uslubiy asoslari takomillashtirilganligi; “Elektr ta'minoti asoslari” fani misolida talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirishning veb sahifasi ishlab chiqilganligi; ta'lim sifati natijalarini aniqlash, baholash va monitoring qilishning uslubiy asoslari ishlab chiqilganligi; ta'lim jarayoni monitoringi va sifatini baholash orqali talabalarining “Elektr ta'minoti asoslari” bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlanishidagi tendensiyalar tahlil qilinganligi va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish yo'llari ilmiy jihatdan asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati simulyatsion yondashuv asosida o'qitish, har bir talaba uchun zarur bo'lgan nostandart ta'lim sharoitida professional harakatlar ko'nikmalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratishi; haqiqiy ta'lim jarayoniga imkon qadar yaqin sharoitlarda kasbiy kompetentligini ta'minlashi; pedagogik xatolar (aniqlash, muhokama qilish va tuzatish mumkin) sonini kamaytirishi va natijalarni darajalashi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Texnikaviy oliy ta'lim muassasalarida simulyatsion yondashuv asosida talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish imkoniyatlari texnikaviy oliy ta'lim muassasalarida “Elektr ta'minoti asoslari” fanining nazariyasi va amaliyotini texnik jarayonlar bilan o'zaro integratsiyalash orqali o'qitish samarasorligini oshirish tamoyillariga (tajriba, sifat, teskari aloqa, individual muloqat) ustuvorlik berish asosida aniqlashtirishga doir taklif va tavsiyalardan 5310200 – Elektr energetikasi ta'lim yo'nalishi talabalari uchun “Elektr ta'minoti asoslari” nomli o'quv qo'llanmasini yaratishda foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 9 sentyabrdagi 302-son

buyrug‘i, 302-93-raqamli guvohnoma). Natijada, bo‘lajak muhandislarning kasbiy tayyorlash samaradorligini oshirishga erishilgan;

bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish mazmuni “Talaba = ta’lim + simulyatsion muhit + ishlab chiqarish” ning uzviylikini ta’miynlashga yo‘naltirilgan amaliy mashg‘ulotlarda nostandart va murakkab texnologik vaziyatlarni yaratish asosida muhandislik jarayonlarni immersiv sezishga doir simulyativ ta’limning an’anaviy ta’lim bilan identivligini ta’miynlash orqali takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalardan Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan IOT-2021-23 raqamli “Sanoat korxonalarining energiya iste’moli monitoringi uchun avtomatlashtirilgan dasturiy mahsulot yaratish” (2021-2023 yy.) mavzusidagi innovatsion loyihasini bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat texnika universitetining 2022 yil 9 noyabrdagi 01/9-14-3711-son ma’lumotnomasi). Natijada, texnikaviy oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini samaradorligini oshirishga doir dasturiy ta’miynot kontentlari takomillashtirilgan;

texnikaviy oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda “Elektr ta’minoti asoslari” fanini o‘qitish metodikasini va o‘quv materillarini simulyatsion taqdim etishga doir amaliy va virtual simulyatsion laboratoriya mashg‘ulotlari hamda mustaqil ishlarni uyg‘unlashtirish orqali takomillashtirishga, virtual simulyatsion laboratoriyalar ishlab chiqish va ularni texnik ta’lim jarayonlarida qo‘llashga doir taklif va tavsiyalardan Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan A-3-82 raqamli “Qora metallurgiya korxonalarining elektrda po‘lat eritish pechlarida energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish usullari” (2017-2019 yy.) mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat texnika universitetining 2023 yil 6 maydagi 01/9-14-1389-son ma’lumotnomasi). Natijada, bo‘lajak muhandislarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligini shakllantirish samaradorligini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xorijiy va 6 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 25 ta ilmiy ish, shulardan 1 ta o‘quv qo‘llanma, OAK ro‘yxatiga kiritilgan jurnallarda 7 ta, shundan 6 ta respublika, 1 ta xorijiy jurnallarda chop qilingan maqolada o‘z aksini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosalar, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 115 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy

ahamiyati, amaliyotga joriy qilinishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Texnikaviy oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida kasbiy kompetentlik texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy tayyorligining muhim komponentlaridan biri ekanligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan, simulyatsion yondashuv asosida o'quv jarayonini tashkil etishning metodologik asoslari tahlil etilgan, “Elektr ta'minoti asoslari” fanining elektr energetika ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirishdagi didaktik imkoniyatlari yoritib berilgan.


Ma'lumki, texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarini kompetentli kadrlar sifatida tayyorlash alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi raqamlashtirish sharoitida turli jarayonlarni avtomatlashtirish uchun mahsulot va dasturiy ta'minotni loyihalash va joriy etish aynan ushbu mutaxassislarga bog'liqdir. Bu sohada kompetentli kadrlarni tayyorlash yuqori qo'shimcha qiymat va iqtisodiyot rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Yetuk va zamonaviy muhandis kadrlarni tayyorlashda texnika oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini simulyatsion yondashuv asosida o'qitish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu *birinchidan*, ta'lim muassasalaridagi moddiy-texnik bazaning etarli darajada ta'minlanmaganligi sharoitida ham talabalarning virtual ishlash imkoniyatini kengaytirsam, *ikkinchidan*, energetika tizimi yuqori kuchlanish bilan ishlaydigan jarayonlar hisoblanadi, ya'ni talabalar turli xil xavfli jarayonlar ustida amallarni bajarishi zarur bo'ladi. Bunday hollarning oldini olishda simulyatsiyalardan foydalanish asosida talabalarga ta'lim berish o'zining ijobiy natijasini beradi. Ya'ni, talabalarning energetika tizimi bilan amaliy ishlash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli xatarlarning oldini olishga doir texnika xavfsizligini ta'minlashga sharoit yaratiladi. *Uchinchidan*, bugungi kunda talaba-yoshlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga bo'lgan qiziqish va moyilliklarini hisobga oladigan bo'lsak simulyatsiya kilingan laboratoriya ishlarini va o'quv materiallarini maxsus ilovalar orqali androyd tizimlariga moslashtirilishi zamonaviy yoshlar uchun katta qulayliklar yaratadi. Ayniqsa, “Elektr ta'minoti asoslari” fanining ixtisoslik fan sifatida simulyatsion yondashuv asosida o'qitilishi texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, har bir sohaning rivoji uchun kompetentli kadrlarni tayyorlash masalasi bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. “Kompetentsiya” tushunchasi ilk bor Massachusetts universiteti o'qituvchisi, lingvist olim va psixolog N.Xomskiy tomonidan qo'llanilgan bo'lib, u kompetentsiyani biror narsa haqidagi bilimlar asosida nimanidir qullay olish deb tushuntiradi.

Bu borada olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, “kompetentsiya” va “kompetentlik” tushunchalarining qo'llanilishida bir qancha tafovutlar va turli xil qarashlar mavjud. Biz bu tushunchalarning mazmun va mohiyatini tahlil etgan holda **kompetentsiya** – bu u yoki bu kasb egasiga zarur bo'lgan kasbiy qonuniyatlar, tamoyillar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda

majburiyatlar, shuningdek, shaxsiy deontologik me'yorlar yig'indisini anglatadi degan xulosaga keldik. **Kompetentlik** esa shaxsning amaliy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, kompetentsiya me'yorlarini jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda, kreativlik asosida ish tajribasida namoyon etish mahorati hisoblanadi. Ilmiy izlanishlar natijasi ularoq **kasbiy kompetentlik** – bu berilgan kasbga doir, normativ talablarni qoniqarli bajarish va kasbiy faoliyatdagi har qanday vaziyatlarda to'g'ri yechim qabul qilish uchun zarur bo'lgan kasbiy bilim va faoliyatda namoyon bo'ladigan umumiy madaniy, muhim fazilatlardan iborat bo'lgan integral kasbiy va shaxsiy sifat (kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish qobiliyati va istagi)larning, ko'nikma, qobiliyat va kasbiy harakatlarning umumlashtirilgan usullari tizimi degan mualliflik ta'rifimizni berishga harakat qildik. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, pedagogik nuqtai nazardan kasbiy kompetentlikning nazariy jihatlari ko'proq o'rganilgan. Ammo texnika oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish sanoatida kadrlar tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan kasbiy kompetentlik masalalari maxsus o'rganilmaganligini ko'rish mumkin. Vaholanki, texnika oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan kadrlar asosan muhandislik faoliyatini olib boradi.

Tadqiqot davomida texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning asosiy komponentlaridan biri - bu **o'quv simulyatorlari** hisoblanadi. **Simulyatsion o'qitish** – bu realistik model yordamida (mexanik, elektron, virtual yoki gibrid) texnik hamda texnik bo'lmagan ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga doir kasbiy tayyorgarlikning zarur komponenti hisoblanadi.



1-rasm. Talabalarda simulyatsion bilimlarni shakllantirish bosqichlarining vizuallashtirish modeli

Respublikamizda simulyatsion o‘qitish yangi soha hisoblanadi. Mark Prenskiningning bugungi kunning talabalarini “Raqamli dunyo sohiblari” (“Digital Natives”) deya ta’riflab, ularni kompyuter, video o‘yinlari va internetning raqamli tilida o‘z ona tilida so‘zlashgandek so‘zlashadigan insonlar sifatida baholaydi². Shu nuqtai nazardan ta’lim tizimida elektron texnologiyalar, raqamli texnologiyalar, kompyuterli modellashtirish, imitatsiyalash texnologiyalaridan foydalanish orqali ta’limning sifatini oshirish ishlari simulyatsiyalash termini bilan uzviy bog‘liqdir. Simulyatsiyalashda eng avvalo hodisa, jarayon va predmetlarni modellashtirish ishlari amalga oshiriladi. Modellashtirish keng ma’nodagi tushuncha bo‘lib, uning zahirida raqamlashtirishdan virtualizatsiyaga, undan simulyatsiyaga qarab o‘tiladi. Biz talabalarda simulyatsion bilimlarning shakllanish bosqichlarining vizuallashtirilgan modelini yaratishga muvaffaq bo‘ldik (*1-rasmga qarang*). Ayniqsa, taxnika oliy ta’lim muassasalarida simulyatsion o‘qitish tizimini virtual laboratoriyalar orqali joriy etish katta imkoniyatlarga ega. Lekin tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayonida simulyatsion virtual tajribalardan foydalanishning o‘ziga xos afzalliklari bilan bir qatorda muayyan kamchiliklardan ham holi emas (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Simulyatsion virtual tajribalardan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari

Ijobiy tomoni	Salbiy tomoni
Haqiqiy qurilmaga nisbatan simulyatsiyalarining arzonligi;	Zamonaviy asbob-uskunalar bozoriga e’tibor qaratish zaruratidan ma’lum darajada ozod qilish;
Haqiqiy uskunaga nisbatan virtual uskunani yangilashda ko‘proq moslashuvchanlik ta’minlashi;	Kompyuter texnologiyalarining tez o‘zgarishi, dasturiy ta’minotning eskirishi;
Simulyatsion virtual laboratoriyaning mavjudligi infratuzilma qo‘shimchasidan ozod etilishi;	Haqiqiy qurilmalarga texnik xizmat ko‘rsatish va tegishli infratuzilmaga qo‘yiladigan talablar haqidagi tasavvurlarning zaiflashishi;
Zararli jismoniy omillarga nisbatan xavfsiz. Ularning ta’siridan himoya qilishni ta’minlash kerak emasligi;	Kompyuter bilan ishlash natijasida yuzaga keladigan salbiy fiziologik va psixologik omillarning umumiy ta’siri borligi, ammo unshalik katta emasligi;
Eksperiment o‘tkazish vaqtini tartibga solish, eksperimentatorning qarori bilan uni sezilarli darajada qisqartirishi;	Haqiqiy vaqt rejimini tark etish, bu haqida g‘oyalarni zaiflashtirish;
O‘lshov natijalarini qayta ishlashning odatiy protseduralari murakkabligini sezilarli darajada kamaytirish, hisob-kitoblar tezligini oshirishi;	Zamonaviy hisoblash vositalaridan foydalanmasdan raqamli natijani baholash qobiliyatining, shuningdek olingan raqamli qiymatlarni etarli darajada idrok etish qobiliyati zaiflashishi;

² Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants. By Mars Prensky. From On the Horizon (MSB University Press, Vol. 9 No. 5, October 2001).

Istalgan rejimda masofadan ishlashning sheksiz imkoniyatlari (oflayn, onlayn) borligi;	Haqiqiy laboratoriya ishlarining tadqiqot muhitini idrok etishdagi oʻrni zaiflashishi;
Talabalarning android tizimlar kompyuterli texnologiyalaridan keng koʻlamli foydalanish va turli hil resurslar bilan ishlash koʻnikmalarini orttirishi;	Haqiqiy tadqiqot tajriba ishlarini oʻtkazish koʻnikmalarini rivojlantirish boʻyicha imkoniyatlarini qisman sheklash;
Mehnatga qiziqishni oshirish, fan va uning eksperimental usullarini oʻzlashtirish uchun motivatsiya darajasini oshirishi	Muntazam mehnat talab qiladigan ilmiy-tadqiqot faoliyati atributlarining yoʻqligi, unga nisbatan munosib munosabatni rivojlantirishga yordam beradi. Kompyuterga qaramlikni oshirish xavfining ortishi;

Ammo, bugungi kunda turmush tarzini android tizimlar, planshet va gadjetlar bilan tassavur qilayotgan yangicha qarashlarda usib kelayotgan yosh avlodni anʼanaviy oʻqitish usullari bilan qiziqtirish asosiy muammolaridan biri ekanligi oʻqituvchilar faoliyatida yaqqol kuzatilmoqda. Demak, zamonaviy oʻqitish texnologiyalaridan foydalanish bugungi kunning talabi hisoblanadi. Shular qatori taʼlim jarayonida simulyatsion texnologiyalardan foydalanish oʻzining samarasini beradi. Ayniqsa, bu texnologiya texnika oliy taʼlim muassasalarida keng qoʻllanish imkoniga ega. Buni mutaxassislik fan sifatida “Elektr taʼminoti asoslari” fanini oʻqitish misolida koʻrib chiqish mumkin. Bu fan elektr energetikasi fanlarining tarkibiy qismi sifatida oʻqitilib kelingan boʻlib, u texnika oliy taʼlim muassasalarining 60710500 - Energetika, 60710600 - Elektroenergetika, 60710700 - Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalar, 60710800 - Gidroenergetika, 60710000 - Muqobil energiya manbalari, 60810500 - Qishloq va suv xoʻjaligida energiya taʼminoti taʼlim yoʻnalishlarida oʻqitiladi. Mazkur fan yuqori bosqichlarda oʻqitiladigan fanlarning asosini tashkil qilib, oʻz rivojida texnik yoʻnalishdagi fanlar uchun zamin boʻlib xizmat qiladi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida texnika oliy taʼlim muassasalari uchun “Elektr taʼminoti asoslari” fanining amaldagi malaka talablari, oʻquv reja va dasturlarining mazmuni talabalarda amaliy koʻnikmalarni shakllantirishga yoʻnaltirilganligi, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish boʻyicha xorijiy tajribalarning oʻrganilayotganligi, oʻquv rejalarida nomutaxassislik fanlarning ulushlari kamayotganligi singari ijobiy holatlar bilan bir qatorda texnika fanlarini oʻqitishda xaligacha qator muammolar mavjudligini koʻrish mumkin. Jumladan:

mahalliy laboratoriya qurilmalarining mavjud emasligi;

xorijiy davlatlardan olib kelinadigan laboratoriya uskunalarining oliy taʼlim muassasalari uchun ancha qimmatga tushayotganligi va u muayyan moliyaviy qiyinchiliklarga olib kelayotgani;

texnika fanlarni oʻqitish boʻyicha oliy taʼlim muassasalari kafedralarining moddiy-texnik bazasi oʻrtacha 22% ni tashkil etayotgani va h.k.

Moddiy-texnik bazaning yetishmovchiligi, laboratoriya uskunalarining yoʻqligining natijasida laboratoriya mashgʻulotlarini oʻquv rejalaridan olib tashlash oson ish hisoblanadi. Ammo bu talabalarda kasbiy kompetensiyalarning toʻliq shakllanmasligining asosiy sabablaridan biri boʻlib qolaveradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, texnika oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarida muhandislikka doir kasbiy kompetensiyalarini, ularning ma'lum bir masalalar yuzasidan o'z qarashlarini va ijodiy fikrlashini shakllantirishda moddiy-texnik bazani takomillashtirish hamda ularning o'z sohalari bo'yicha zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalarini orttirishlarini ta'minlash lozim. Bu masala boshqaruvchilik, psixo-pedagogik, didaktik va metodik sifatlarning me'yoriy tizimlari asosida echilishi mumkin.


Baholanki, talabalarda kasbiy kompetentlikning rivojlanishida laboratoriya mashg'ulotlari asosiy o'rinni egallaydi. Mazkur muammodan kelib chiqqan holda "Elektr ta'minoti asoslari" fanini o'qitishda laboratoriya mashg'ulotlarini o'quv simulyatorlari asosida yaratish vazifasi belgilandi va bu yuqorida ta'kidlangan muammolar uchun optimal echimlarning biri hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **"Texnika oliy ta'lim muassasalarida "elektr ta'minoti asoslari" fanini simulyatsion yondashuv asosida o'qitish orqali talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish metodikasi"** deb nomlangan ikkinchi bobida simulyatsion yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish mazmuni, "Elektr ta'minoti asoslari" fanini simulyatsion yondashuv asosida o'qitish va talabalarning kasbiy kompetentligining takomillashganlik darajasini baholash metodikasi yoritib berilgan.

Simulyatsion yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning mazmunini shakllantirishda kasbiy kompetentlik va simulyatsion yondashuv masalalarining integratsiyasini ko'rib chiqish talab etiladi.


Texnika oliy ta'lim muassasalarida kasbiy kvalifikatsiyasi bo'yicha muhandis kadrlarni tayyorlaydi. Shu nuqtai nazardan, rasmiy hujjatlarda, ya'ni DTS va malaka talablarida ko'rsatilgan kasbiy kompetensiyalar doirasida qilinishi lozim bo'lgan simulyatsion yondashuv asosida o'qitishni takomillashtirish masalalari ko'rib chiqildi.

Simulyatsion yondashuv asosidagi ta'limda talabalar faqatgina ta'lim muassasaining o'zida emas, balki o'zining yoshash joyi va bo'sh sharoitlarda bilim olishi va uni virtual amaliyotda mustahkamlashi mumkin. Lekin bunday sharoitlarda talabalarning ta'lim muassasalari va laboratoriya mashg'ulotlarida bilim olishga doir ularni o'zaro bog'lovchi simulyatsion o'qitish tizimi etishmaydi. Shuning uchun talabalar ta'lim muassasalarida rejalashtirilgan o'quv mashg'ulotlaridan so'ng muayyan vaqt ichida o'quv simulyatorida tajriba ishlarini virtual bajaradi, jarayonlarni ketma-ketlik bilan bajarib bo'lgandan so'nggina amaliyotda bo'ladigan har qanday jarayonda ish olib borish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Ushbu faoliyatning ketma-ketligi va samaradorligini ta'minlash maqsadida simulyatsion yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish modeli ishlab chiqildi (*2-rasmga qarang*).



2-rasm. Simulyatsion yondashuv asosidagi ta'lim

Bunday simulyatsion yondashuv asosida o'qitish orqali ta'lim jarayonini tashkil etishning bosqichlari aniqlangan bo'lib, ular “*Kafedra → Auditoriya → Simulyatsion muhit → Amaliyot → Kafedra*” hisoblanadi va bu o'quv mashg'ulotlarining yuqori darajada tashkil etilishini ta'minlovchi davriy jarayonni ta'riflaydi. Tadqiqot jarayonida texnika oliy ta'lim muassasalari “Elektr energetikasi” ta'lim yo'nalishini tugatgan talabalarning etuk muhandis-elektr kadrlar sifatida shakllanishiga doir metodik ko'rsatmalar va modellar orqali echimlar aniqlashtirilgan. Ya'ni, muhandis – bu mutaxassisning kasbiy kompetentlik modelida ta'lim maqsadlari obyektlar, mehnat obyektlari, subyektlarning o'zaro ta'siri, muayyan funksiyalarni bajarish, shuningdek, o'quv jarayoni natijasiga qo'yiladigan fanlararo integratsiyalashgan talablar bilan bog'liq tushuncha hisoblanadi (3-rasmga qarang).



3-rasm. Simulyatsion yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning texnologik modeli

Texnika oliy ta'lim muassasalari ta'limi bo'yicha tegishli me'yoriy hujjatlarning joriy holati va o'quv simulyatorlarining imkoniyatlaridan kelib chiqib talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga doir ikkita asosiy **yo'nalish** belgilab olindi. Bular:

1) mutaxassislik fanlarini o'qitishda talabalarning kasbiy sifatlarini rivojlantirish uchun o'quv jarayoniga qo'yiladigan talablar;

2) mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida talabalarning bilim olishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish.

Talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish mazmunini simulyatsion yondashuv asosida takomillashtirishga oid olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi **tavsiyalar** kiritildi:

bajarilayotgan laboratoriya va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va o'quv simulyatorlaridan (imitatsion modellarni) foydalanishni mukammal o'rganish;

amaliyotda raqamli texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigma va metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini (tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda) qo'llash, onlayn platformalardan foydalana olish qobiliyatlariga ega bo'lish;

ishlab chiqarish jarayonlarini texnik nazorat qilish, sinov o'tkazish va sifatini boshqarishni bilish shu jumladan, avtomatik simulyatorlar yordamida boshqarishni bilish;

ilmiy, amaliy va virtual faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish va ulardan foydalana olish;

zamonaviy raqamli texnologiyalar tizimini yaratish ya'ni simulyatsion avtomatik boshqarish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog'lik bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqara olish;

o'quv simulyatorlari yordamida olgan bilimlar asosida ilmiy - tadqiqot ishlarini amalga oshirishda elektr stantsiyalari, tarmoqlari, uskunalari va tizimlarini sinash, ish holatlarini hisoblash va baholash, ularda kechadigan jarayonlarni tahlil qilish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlarni amalga oshira olish.

O'quv jarayonida o'quv simulyatoridan foydalanish ta'lim muassasalarida tegishli texnik vositalar (kompyuterlar, proektorlar, interfaol doskalar va boshqalar) va fanning o'quv materiallari (fanlar bloki) bo'lgan zamonaviy elektron o'quv resurslari mavjud bo'lganidagina samarali bo'ladi.

